



XX-ASRNING “HAMNAFAS” XOFIZLARI

Muyassarxon Achildiyeva

Farg'ona davlat universiteti “San’atshunoslik” fakulteti “Musiqqa ta’limi va madaniyat” kafedrasida o’qituvchisi

Ruxshona Atkiyoyeva


Farg'ona Davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti “Musiqqa ta’limi” yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrda yashab, ijod qilgan O'zbekiston xalq artistlari, vodiyning hushovoz bulbullari, musiqa madaniyatining yetuk namoyondalari, o'zbek musiqa san'atini chet-el bo'ylab keng targ'ib qilishda ulkan hissa qo'shgan ikki buyuk hofizlar Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlarning hayotiy tajribalari va ijod yo'llari haqida fiklar yuritiladi. Qolaversa, ushbu ikki buyuk hofizning ijod yo'lida boshdan kechirgan mashaqqatlari va shu qiyinchiliklar orqasidan erishilgan samarali ijodiy yutuqlar mulohazalar orqali atroflicha ko'riladi.

Kalit so'zlar: katta ashula, yalla, O'zbek davlat konsertetnografik truppa, katta ashula piri, Suvora, Ushshoq, Bayot V, Sodirxon Ushshog'i, Dugoh Husayniy, Feruz, Mustahzod, hamnafaslik, Chor zarb, Savti Suvora, Besh parda Suvora, Shafoat, Hayrul Bashar

Jo'raxon Sultonov 1903-yilning 29-yanvarida Marg'ilon shahrida tavallud topgan. Xonanda, bastakor, O'zbekiston xalq hofizi (1939-y). Keng diopozonli, yumshoq xirildoq va dardli ovoz sohibi. Honandalik saboqlarini ilk bor otasidan olgan, keyinchalik Madali hofizdan yalla yo'llarini, Boltaboy Rajabov va Mamatbuva Sattorovlardan katta ashula, Sodirxon hofiz va Mulla To'ychi hofizlardan maqom yo'llarini puxta o'zlashtirgan. Dastlab, xalq to'y-sayillari, choyxonalarda xizmat qilgan. 1926-yildan Muhitdin Qoriyoqubov rahbarligida O'zbek davlat konsertetnografik truppasida qatnashgan. Marg'ilon va Toshkent teatrlarida faoliyat olib borgan. O'zbek davlat filormoniyasi hamda O'zbekiston radio qo'mitasida yakka xonanda bo'lib ishlagan. Muqimiy tetarida Parvi hofiz (“Layli va Majnun”), Norqo'zi (“Nurxon”) kabi rollarni ham ijro etgan.¹

¹ R.S.Abdullayev. O'zbek mumtoz musiqasi. O'quv qo'llanmasi 2009-yil. Yangi nashr.



Sultonov xalq orasida “katta ashula piri” nomini olgan, shuningdek “yallalar ustasi”, askiyachi sifatida ham tanilgan. Shogirdi Ma’murjon Uzoqov bilan 25 yildan ortiq hamnafaslik qilib, o‘ziga xos talqin yo‘lini yaratgan. Repertuarlaridan “Ushshoq” va “Sodirxon Ushshog‘i”, “Dugoh Husayin”, “Besh parda Suvora” va “Savti Suvora”, “Hanuz”, “Chor zarb”, “Chaman yalla” kabi mumtoz ashula va yallalar, “Bog‘ aro”, “Shafoat”, “Hayrul Bashar”, “Otga mindim” va boshqa katta ashulalar o‘rin olgan. U o‘zbek xalq kuy va usullari asosida bir qancha ashulalar ustida ijod qilgan.²

² N.Rahmatova, N.Yuldasheva. O‘zbek musiqa ijodiyoti. O‘quv uslubiy qo‘llanmasi.



Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar aynan bir yerda tavallud topganlar. Ma'murjon Uzoqov Jo'raxon Sultonovdan 1 yil kech, ya'ni 1904-yilning 20-aprelida Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Ikkala hofiz ham Mamatbuva Hofiz va Boltaboy Rajabovlarda yalla aytishning sir sanoatlarini puxta o'rganganlar. Qolaversa, Ma'murjon Uzoqov o'zi uchun dutor chalishni o'rganadi. Ushbu san'atkor Jo'raxon Sultonovni o'ziga ustoz deb biladi. Sababi, katta ashula, yalla-lapar va dutor chalishni Jo'raxon Sultonovdan o'zlashtirgan edi. 1922-1925-yillar Xudoybergan hofiz Maqsumov, 1936-1932-yillar Hasan qori va eng ko'p 1933-1962-yillar Jo'raxon Sultonov bilan hamnafaslikda kuyagan.



Ikkala hofiz ham ilk ijodini to'y-sayillarda, choyxonalarda ashula va lapar aytish bilan boshlagan.

Ma'murjon Uzoqov baland, shirador va o'ta ta'sirli ovoz sohibi edi. Ushbu ijodkorlar birgalikda turli mashaqqatli yo'llarni bosib o'tganlar. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek, san'atkorlarning samarali san'atini va yutuqlarini ko'ra olmaydigan insonlar ham bor edi. Ikkalar hamnafaslarni bir-biridan ajratmoqchi bo'lgan mavqeli kasb egalari ham topildi. Lekin ularga



qilingan yovuzlik, razillik va jirkanchliklarga qaramay ushbu ijodkorlar faqat va faqatgina ijod yo'lining o'nqir-cho'nqir yo'llaridan ham yurishda davom etdilar.

Ushbu ikkala hamnafaslarning repertuarlaridan doim xalq ashula, katta ashula, yalla, ashula, bastakorlar asarlari (ayniqsa M.Mirzayevning "Yakka bu Farg'onada", "Surating", "Dog'man", "Yor istab", "Bahor", "Qachon bo'lg'ay, kim", "Bir kelib ketsin" kabi), mumtoz ashulalar ("Feruz", "Mustahzod", "Bayot V")lar o'rin olgan. Ular birgalikda Farg'ona xonandalik maktabi an'analarini davom ettirgan va o'zbek musiqa madaniyati tarixida chuqur iz qoldirganlar.

Bugungi kunga kelib ularning ijrolari O'zbekiston radiosi San'atshunoslik instituti fonojamg'armalarida saqlanmoqda, bir necha grammplastinka, audiokasseta va kompakt disklarga yozilgan. Vafotlaridan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun ordeni" va "O'zbekiston xalq hofizi" nomli davlat mukofotlariga sazovor bo'lishgan. Ushbu XX asrning hamnafaslarini nomini bardavom qilish maqsadida 1997-yildan beri Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar nomidagi Respublika xonandalar tanlovi o'tkazilmoqda. Qolaversa, Marg'ilonda joylashgan "Ijodkorlar bog'i"da ikkala hofizning haykali qad ko'targan. O'zbekiston hududidagi ayrim ko'cha va mahallalarga Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqov nomlari berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Nabiyeva. "O'zbekiston musiqa san'atining dolzarb masalalari" ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2020-yil.
2. N.Rahmatova. N.Yuldasheva. O'zbek musiqa ijodiyoti o'quv qo'llanmasi.
3. B.R.Yakubov. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti nomli ma'ruzalar to'plami.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2-jild.
5. Хожимаматов Азимжон. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.
6. Muyassarxon Achildiyeva. PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI. VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 254-266 bet.



7. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

8. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" *THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY*", 14(1).

9. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" *THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY*", 14(1).

10. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.

11. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.

12. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.

13. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

14. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.

15. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.

16. Xojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.

17. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(С4), 29-33.

18. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).



19. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

20. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(С4), 23-28.

21. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.

22. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

23. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.

24. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.

25. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).

26. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

27. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

28. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.